

5-dars

Mavzu: Tovushlar va harflar (14 – 16-mashqlar)

Darsning ta'limi maqsadi: tovushlar, ularning so'z ma'nolarini farqlashi, to'g'ri tallafuzi, belgilari, tovushlarning harflar bilan yozilishi, harflarning belgilari, grafik jihatdan to'g'ri shakllantirish haqidagi bilimlarini eslatish orqali mustahkamlash; unli va undosh tovushlar tallaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga bo'lish va ko'chirishni, so'zlarni bo'g'in-tovush va tovush-harf jihotdan tahlil qilishni bilish: talaffuz me'yorlariga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'ziga kichiklarga yordam berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilardagi fonetik idrokni rivojlantirish; mediavositalaridan, didaktik materiallardan foydalanish.

Darsning turi: bilimlarni shakllantiruvchi; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi.

Darsning metodi: suhbat, analitik-sintetik metodi, "Mosini top!" ta'limi o'yin.

Darsning johozi: tovushlar uchun katakchalar, kesma harflar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: Shirin so'z boldan shirin.

Uy vazifasini tekshirish. 13-mashqning sharti o'quvchilarga o'qitiladi. Mashqning bajarish tartibi o'qituvchi tomonidan tekshirib chiqiladi. Nutq, matn, gap haqidagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida savol-javob o'tkaziladi.

- Nutqning qanday turlari bor?
- Matn nima?
- Matn nimalardan tuziladi?
- So'zlarga qanday so'roqlar berish mumkin?

III. Yangi mavzu bayoni.

O'qituvchi 14-mashq asosida yangi mavzuni o'quvchilarga tushuntiradi. O'qituvchi o'quvchilarni 3 guruhga bo'ladi. Ularga: *uchar*, *kitoblar*, *sayyorasi*, *g'aroyib*, *buloqlarda*, *aqlimiz*, *fikrimiz*, *eng*, *yer* so'zlar yozilgan tarqatmalarni stol ustiga teskari qo'yadi. Guruh sardori uchtadan tarqatmani olib, quyidagi savollarga javob beradilar.

- So'zdagi tovushlar soni?
- So'zdagi harflar soni?
- So'zdagi unli va undosh tovushlar sonini ayting.
- Harf birikmali so'z?

Savollarga to'g'ri javob topgan guruh g'olib hisoblanadi va rag'batlantiriladi.

O'quvchilar berilgan so'zlarni daftarlariiga yozadilar. So'zlardagi tovush va harflar soni yozdiriladi.

Shundan so'ng o'qituvchi tomonidan nutq so'zlardan iborat ekanligini, so'zlar tovushlardan iborat ekanligini va tovushlarni biz talaffuz qilinishi va eshitilishini hamda yozuvda harflar bilan ifodalanishi tushuntiriladi. Shuningdek, tovushlar orqali so'zlar bir-biridan farqlanishi misollar bilan tushuntiriladi.

Qoidani yod oling!

Tovushlar yozuvda harflar bilan ifodalanadi. **Unli tovushlarni** talaffuz qilganimizda havo og'izdan erkin o'tadi. **Unli tovushlar** ovozdan tashkil topadi. **Unli tovush** bo'g'in hosil qiladi. **Undosh tovushlarni** talaffuz qilganimizda havo og'izda to'siqqa uchraydi.


IV. Yangi maavzuni mustahkamlash

15-mashq. O'qing. So'zlarning talaffuziga e'tibor bering. Ularning o'rnini to'g'ri qo'yib maqollar tuzing. Har bir so'zda nechta tovush va nechta harf borligini aniqlab, gaplar tuzing va yozing.

1. *Shirin so'z boldan shirin.*
2. *Birovga choh qazima, o'zing tushasan.*
3. *Yetti o'lchab, bir kes.*
4. *Usti yaltiroq,ichi qaltiroq.*

Berilgan so'zlar tovush-harf tomonidan tahlil qilinadi. Topshiriqni bajarish uchun harflar, tovushlar, bo'g'inlar soni yozilgan jadvaldan foydalanish mumkin.

"Mosini top!" ta'limi o'yini. Bunda namunadagi rangli kataklardalardagi harflarni moslashtirib, turli so'zlar hosil qilinadi. Masalan: *sado*, *soat*, *ot*, *ota*, *odat* ...



V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqqan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

16-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.